

## SHARTNOMA № 311/1

(Byudjetdan mablag' oluvchi muassasalarni dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlash haqida)

"20 01 2022 yil.

Farg'ona shahri.

Ushbu shartnoma bir tomonidan "FARG'ONA DORI-DARMON" aksiyadorlik jamiyatini nomidan boshqaruv raisi M.A.Tursunov vakilligida kelgusida "Ijrochi" va ikkinchi tomonidan

*Buyurtmachi o'stiga qo'shishga qaror qilingan.*  
vakilligida kelgusida boshlig'i *M.A.Tursunov* "Buyurtmachi" o'stisida har ikki tomonning amaldagi "Nizom"lari va O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuniga, shuningdek, boshqa amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi mazmunda tuzdilar:

### I. Shartnoma predmeti.

1.1 "Ijrochi" "Buyurtmachi"ga ushbu shartnomaga asosan umumiyligi qiyamati so'm 241500 (*summa raqam va so'z bilan yoziladi*)

bo'lgan dori vositalari hamda tibbiy buyumlar (kelgusida "Tovar" deb nomlanadi) ni spesifikasiyaga asosan bir marotabalik yoki yillik talabnama asosida yetkazib beradi.

1.2. "Ijrochi" esa o'z navbatida ushbu "Tovar" lar uchun kelishilgan haqni shartnomaning 2-bo'limida belgilangan shartlar asosida "Buyurtmachi" ga to'laydi.

### II. To'lov tartibi.

2.1. "Buyurtmachi" shartnoma imzolangandan so'ng yetkazib berilishi lozim bo'lgan "Tovar" umumiyligi qiyamatining 30 % ni oldindan *72450* so'm miqdorda "Ijrochi" ning hisob-raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan to'laydi. Yetkazib berilgan "Tovar" lar to'lovingin qolgan, ya'ni 70 % qismi esa "Buyurtmachi" tomonidan "Tovar" qabul qilib olingandan so'ng 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida to'liq to'lab beriladi.

### III. Tomonlarning huquq va majburiyatları

#### 3.1. "Ijrochi" ning huquq va majburiyatları:

3.1.1. "Buyurtmachi" tomonidan "Tovar" umumiyligi narxining 30 foizi "Ijrochi" ning hisob raqamiga oldindan to'langandan so'ng "Ijrochi" "Buyurtmachi" ni "Tovar" bilan ta'minlaydi.

3.1.2. "Ijrochi" "Buyurtmachi" ga tegishli hujjatlar asosida "Tovar"ni belgilangan tartibda hamda belgilangan standart sifat darajasida topshirish majburiyatini oladi.

3.1.3. "Ijrochi" "Buyurtmachi" ga qulaylik yaratish maqsadida "Tovar"ni o'z transport vositalarida "Iste'molchi" ning manzilgohiga yetkazib berishi mumkin. Bu holda transport vositasi orqali yetkazib berish harajati "Ijrochi" tomonidan qoplanadi.

3.1.4. "Ijrochi" ning transport vositasida yetkazilgan "Tovar" ning miqdoridan aniqlangan kamomad hamda sifatsizliklar yuzasidan "Buyurtmachi" "Ijrochi"ning vakili ishtirokida "Tovar" yetkazilgan kundayyoq dalolatnomada tuzib holatni tasdiqlaydi. Mazkur dalolatnomaga asosan kamomad hisobi "Ijrochi" tomonidan to'ldiriladi. Agarda ushbu harakatlar o'z vaqtida amalga oshirilmasa e'tiroz asossiz deb hisoblanib, inobatga olinmaydi.

3.1.5. "Ijrochi" Sog'liqni saqlash tizimidagi yuqori tashkilotlar tasdiqlagan markazlashgan taqsimot orqali dori vositalari va muruvvat yordamlaridan kelgan "Tovar"lar bilan "Buyurtmachi"ni ta'minlaydi. Taqsimotni tasdiqlagan tashkilotning ruxsatisiz "Buyurtmachi" "Tovar" ni olishga haqli emas. Transport harajatlari "Buyurtmachi" tomonidan qoplanadi.

#### 3.2. "Buyurtmachi"ning huquq va majburiyatları:

3.2.1. "Ijrochi" "Buyurtmachi" dan shartnoma tuzilgandan so'ng yetkazib berilishi lozim bo'lgan "Tovar" uchun ularning umumiyligi qiyamatining 30 foizini oldindan to'lagandan so'ng 10 kalendar kun ichida tegishli hujjatlarni rasmiylashtirib, "Tovar"ni ishonchnoma asosida qabul qilib olish huquqiga ega.

3.2.2. "Buyurtmachi" "Ijrochidan" dan O'zbekiston Respublikasida farmakologik ro'yxatdan o'tkazilib, ishlashiga ruxsat etilgan, sifati, markirovka va o'ramlari amaldagi farmasevtik va texnik talablarga javob beradigan hamda sifat sertifikatiga ega bo'lgan "Tovar"larni talab qilish huquqiga ega. Yetkazib berilgan "Tovar" sifatsiz va belgilangan texnik talablarga mos kelmasa, "Buyurtmachi" "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuning 26-moddasiga muvofiq "Tovar"ni qabul qilishni hamda ularning haqini to'lashni rad etib, "Ijrochi"dan sifatsiz va belgilangan texnik talablarga mos kelmaydigan "Tovar" qiyamatining 20 foizi miqdorida jarima undirishga haqli.

### IV. Tomonlarning mulkiy javobgarliklari

4.1. Tomonlarning mulkiy javobgarliklari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi sub'yektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni va boshqa amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

4.2. "Buyurtmachi" tomonidan "Ijrochi"ga berilgan yillik berilgan buyurtmalarni "Buyurtmachi" ushbu shartnomaning umumiyligi summasidan kelib chiqqan holda to'liq olishi shart. Aks holda "Buyurtmachi"dan